

**INGLIZ TILI LEKSIK KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA ASSOTSIATSIATIV YONDASHUVDAN
FOYDALANISH METODIKASI**

Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolda Ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda assotsiatsiativ yondashuvdan foydalanish metodikasi hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda assotsiatsiativ yondashuvdan foydalanishda soʻzning maʼnosi (semantizatsiya) ustidagi ishlar dastlabki bosqich sanaladi va aynan soʻzlarni matnga muvofiq holda semantik tanlab olish til va nutq hodisalarini anglab yetishni shakllantiradi. Bunda ingliz tili oʻqituvchilarining vazifasi avval shu soʻzlarni maʼnoviy nuqtayi nazardan toʻliq va toʻgʻri shaklda shakllantirib borish, soʻng ularni oʻquvchilar xotirasida mustahkamlab borishdan iborat boʻladi.

Kalit soʻzlar. Ingliz tili, leksik kompetensiya, assotsiatsiativ yondashuv, soʻz maʼnosi (semantizatsiya), semantik tanlab olish, til va nutq, oʻquvchilar xotirasi.

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АССОЦИАТИВНОГО
ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Мирзакамолова Мафтуна Рахимжон кызы

Базовый докторант Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье представлены некоторые размышления о методике использования ассоциативного подхода в развитии лексической компетенции английского языка. При использовании ассоциативного подхода в развитии лексической компетенции английского языка начальным

этапом считается работа над значением слова (семантизация), и именно семантический подбор слов в соответствии с текстом формирует понимание языковых и речевых явлений. В этом случае задача преподавателей английского языка состоит в том, чтобы сначала сформировать эти слова в целостной и правильной семантической точки зрения форме, а затем закрепить их в памяти студентов.

Ключевые слова. Английский язык, лексическая компетенция, ассоциативный подход, значение слова (семантизация), семантический подбор, язык и речь, память студентов.

METHODOLOGY OF USING THE ASSOCIATIVE APPROACH IN DEVELOPING ENGLISH LEXICAL COMPETENCE

Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi

PhD student of Namangan State University

Annotation. This article presents some thoughts on the methodology of using the associative approach in developing English lexical competence. When using the associative approach in developing English lexical competence, work on the meaning of the word (semantization) is considered the initial stage, and it is precisely the semantic selection of words in accordance with the text that forms the understanding of language and speech phenomena. In this case, the task of English teachers is to first form these words in a complete and correct form from a semantic point of view, and then consolidate them in the memory of students.

Keywords. English language, lexical competence, associative approach, word meaning (semantization), semantic selection, language and speech, student memory.

Ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda assotsiatsiyativ yondashuvdan foydalanish jarayoni pedagogik-psixologik va metodik

yondashuvlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Pedagogik-psixologik va metodik tadqiqotlarda soʻz nutq orqali insonlarning tushunishga yordam beruvchi va bir-biriga taʼsir koʻrsatuvchi vositalardir deb taʼrif beriladi. Soʻz nutqni mazmun va maʼno bilan toʻldiradi, hissiyot va istaklarni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bois nutqning leksik tomonini egallash pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan nihoyatda muhim oʻrin tutadi. Psixologik tadqiqotlarda soʻz, leksika va lugʻat tushunchalari yaxshi tadqiq qilingan sohalardan biri hisoblanadi. Metodik nuqtayi nazardan ham soʻz asosiy nutq birligi boʻlib, tilda muayyan tushunchani anglatadigan leksemaning ifodasi sifatida namoyon boʻladi. Soʻz tilning leksik qatlamini tashkil qiluvchi asosiy birlik boʻlib, tilshunoslikning leksikologiya deb ataluvchi eng katta boʻlimlaridan birining oʻrganish obyektidir.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da soʻz va leksika tushunchalariga quyidagicha taʼrif berilgan: ”Leksika yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, lexicos – soʻz va soʻzga oid, lugʻaviy soʻz, ibora degan maʼnolarni bildirib, biror til yoki shevada muayyan paytda mavjud boʻlgan soʻzlar majmui, muayyan ish, faoliyat, kasb-hunar sohasida qoʻllanadigan soʻz va terminlar, shuningdek, muayyan muallif badiiy asarlarining soʻz boyligi degan maʼnolarni ifodalaydi. Shuningdek, lugʻat – soʻz, tildagi barcha soʻzlar majmui, soʻz boyligi maʼnolarini ifodalaydi [1]. Demak, muayyan tilda mavjud boʻlgan barcha faol va nafaol soʻzlar yigʻindisi shu tilning lugʻat majmuini tashkil etadi. Har qanday tilni oʻrganish aynan soʻzlarni oʻrganishdan boshlanadi. Akademik litseylarda chet til oʻrganishda leksika ustida ishlash dastlabki va asosiy bosqich hisoblanadi. Mazkur oʻquv yurtlarida chet til oʻqitishda leksika ustida ishlashning eng asosiy vazifasi – oʻquvchilarning oʻrganilayotgan chet tildagi soʻz zahirasini boyitish va kengaytirishdan iboratdir [2].

Mazkur lugʻatda yana soʻz – muayyan tovush shakliga ega boʻlgan, narsahodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lugʻaviy maʼno, shuningdek, turli grammatik maʼnolarni ifodalay oladigan va sintaktik vazifalarda qoʻllana oladigan eng muhim til birligi, gapning qurilish materialidir [1.2], deya tavsiflanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan soʻzga - “soʻz

borliqdagi hodisa va narsalarning ma'nosini ifoda etuvchi, grammatik jihatdan shakllangan va jamiyat a'zolari tomonidan bir xil tushuniladigan, tovush formasida ifodalangan mustaqil va markaziy til birligidir", degan ta'riflar ham berilgan [3]

Ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirishda assotsiatsiyativ yondashuvdan foydalanishda so'zning ma'nosi (semantizatsiya) ustidagi ishlar dastlabki bosqich sanaladi va aynan so'zlarni matnga muvofiq holda semantik tanlab olish til va nutq hodisalarini anglab yetishni shakllantiradi. Bunda ingliz tili o'qituvchilarining vazifasi avval shu so'zlarni ma'noviy nuqtayi nazardan to'liq va to'g'ri shaklda shakllantirib borish, so'ng ularni o'quvchilar xotirasida mustahkamlab borishdan iborat bo'ladi.

psixologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, yangi so'zlarni o'rgatish mazkur so'z va leksikaga oid tushunchalarni ko'z oldiga keltirish, tasavvur etish yo'li bilan paydo bo'ladi. Jumladan, V.B.Belyayevning ta'kidlashicha, avvalo, bir qator aniq obrazlar (tasavvurlar) zarur bo'ladi. Birinchi tasavvur, ya'ni atigi bir buyumni tasavvur etish orqali tushuncha hosil bo'lmaydi. Mana shu obrazlar yoki tasavvurlarning hammasini birbiriga ichki, ya'ni tahliliy qiyoslash natijasida o'xshash jihatlari yoki farqlanishlari yoxud umumiy va o'ziga xos belgilari aniqlanadi. Tasavvurga keltirilgan belgilar jamlanadi, ya'ni sintezlanadi. Umumiy tasavvurga keltirilgan va jamlangan belgilar yig'indisi tushunchani hosil qiladi [5].

Ta'lim muassasalarida ingliz tili leksikasi ustida ishlaganda, uni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish muhimdir. Leksik materialni metodik tashkil qilish o'z ichiga ingliz tili leksikasini tanlashni (selection), taqsimlashni (classification), metodik tipologiya qilishni (distribution), ustida ishlash (presentation) bosqichlarini o'z ichiga oladi. Yangi materialni tushuntirish bosqichida ta'lim oluvchilarning o'zbek (ona) tili, rus (ikkinchi) tili va ingliz (chet) tildagi turlicha til hodisalarini qiyoslash bo'yicha faol harakatlarga jalb etish kerak, mashq qilish hamda ko'nikmalarni avtomatlashtirishni kerakli darajada ta'minlash darkor [6].

Ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarining yosh xususiyatidan kelib chiqadigan shu kabi psixologik jihatlarni bilishi, so'zning semantik, strukturaviy va

funksiyaviy tomonlarini yaxshi bilgan holda o'quvchilarga shu so'zni singdirishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Lingvopsixologik tadqiqotlar ham so'zlarning semantik jihatdan umumlashgan tarzda turli guruhlar sifatida xotirada saqlanib qolishini ta'kidlaydi.

Shuni qayd etish kerakki, ko'p hollarda chet tilini o'rgatish ona tili va ikkinchi tillarda shakllangan nutq ustiga quriladi. Agar o'quvchilarning ona tili va ikkinchi tillardagi nutqi yaxshi shakllangan bo'lsa, uning chet tildagi so'zlarni o'zlashtirishi nisbatan osonroq kechadi.

M.Choriyevning fikricha, so'zlarni tematik yo'nalishlarga ajratish va o'quvchilarga birinchi navbatda o'rgatilishi zarur bo'lgan leksik birliklarni aniqlashda, avvalo, o'quvchilar dunyoni qanday taniy boshlaydi? - degan savolga javob topish kerak bo'ladi. Bu o'rinda ushbu fikrlarga qo'shilgan holda shuni qayd etish mumkinki, o'quvchilarga birinchi navbatda o'rgatilishi kerak bo'lgan so'zlar o'quvchining hayotiy ehtiyojidan kelib chiqadi va bu albatta tabiiy hol hisoblanadi. Dastlabki so'zlar zahirasiga ega bo'lmay turib xorijiy tilda so'zlashish birmuncha murakkablik tug'diradi. Shu bois, pedagoglar amaliyotda o'quvchilarning chet tildagi so'zlarni imkon boricha ko'proq va tezroq bilib olishlariga erishish uchun astoydil harakat qiladilar. Biroq o'quvchilarda chet tildagi so'zlarni o'zlashtirish va nutqda qo'llay olish qobiliyati bor-yo'qligiga ham e'tibor berish zarur.

Ta'kidlash kerakki, bu jarayon tasodifan sodir bo'lmaydi. Tovushlar bilan so'zlar til materiyasining o'zini tashkil etadi. So'zni o'zlashtirish uning eshituv-harakatlanuv asosi shakllanishidan boshlanadi. Demak, chet tilda yangi leksika ustida ishlayotgan o'qituvchi, birinchi navbatda, uning tovushli (yoki grafik) shaklining yorqin va aniq obrazini taqdim etishni ta'minlashi kerak. Avvalo, so'zni barcha analizatorlar orqali "o'tkazish" zarur, ya'ni o'quvchilar ravon, aniq va tiniq ko'ra olishlari hamda bir necha bor jo'r ovozda va pedagogning tuzatishiga tayanganicha yakka holda aytib berishlariga yordamlashish kerak. Yangi leksik material ustida ishlashni tashkil etishda so'z tuzilmasini anglash muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, ikkinchi jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. - B.495
2. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. – T.: Sano-Standart, 2004. - 152 b. 68- b.
3. Sodiqov A. Abduazizov A. Irisqulov A. Tilshunoslikka kirish. – T.: 1981.- B. 93
4. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. - М.: Русский язык, 1989. – С. 135. – 176с.
5. Беляев, Б.В. Очерки по психологии обучения иностранному языку [Текст] /Б. В. Беляев. — М.: МПСИ, 2004. — 448 с.
6. Соловова, Е.Н. Методика обучения иностранным языкам [Текст] / Е.Н. Соловова. - М.: АСТ, 2008. - 240 с.